



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

MIKELANJELO RENESSANS DAVRINING BUYUK
HAYKALTAROSHI SIFATIDA

Bokiyeva Guzal Ilhom qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

San'atshunoslik va muzeysunoslik fakulteti

San'atshunoslik: (tasviriy va amaliy san

ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

guzalbokiyeva@q.mail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqola Renessans davrining ulug' san'atkori Mikelanjelo Buonarroti hayoti va ijodiga bag'ishlangan. Maqolada uning haykaltaroshlik san'atidagi beqiyos mahorati, asosiy asarlari va ularning madaniy merosdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, Mikelanjeloning ijodiy uslubi, inson tanasini tasvirlashdagi noyob mahorati va haykaltaroshlik san'atiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlari: *Mikelanjelo Buonarroti, Renessans, haykaltaroshlik, san'at, "Dovud" haykali, "Pieta", ijodiy uslub.*

АННОТАЦИЯ: *Статья посвящена жизни и творчеству Микеланджело Буонарроти, великого художника эпохи Возрождения. В статье подчеркивается его непревзойденное мастерство скульптуры, его основные работы и их место в культурном наследии. Также будет проанализирован творческий стиль Микеланджело, его уникальное мастерство изображения человеческого тела и его вклад в искусство скульптуры.*

Ключевые слова: *Микеланджело Буонарроти, эпоха Возрождения, скульптура, искусство, статуя «Давид», «Пьета», творческий стиль.*

ANNOTATION: *This article is devoted to the life and work of Michelangelo Buonarroti, the great artist of the Renaissance. The article highlights his unparalleled mastery of sculpture, his main works and their place in the cultural heritage. It also analyzes Michelangelo's creative style, his unique skill in depicting the human body and his contribution to the art of sculpture.*

Keywords: *Michelangelo Buonarroti, Renaissance, sculpture, art, statue of "David", "Pieta", creative style.*



KIRISH

Uyg'onish davri insoniyat taraqqiyotidagi muhim insoniyatning shu davrgacha o'z boshidan kechirgan hamma o'zgarishlari ichida eng buyuk o'zgarish bosqichi, bu davr o'z tafakkur kuchi, extiros va harakteri jihatidan, mukammallik va olimlik jihatidan juda ulug' siymolarni yetishtirib berdi.. Uyg'onish davri kishilari insonning aql-idrokiga, imkoniyatining cheksizligiga, ma'rifatning kelajakdagi tantanasiga ishonilar.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

O'z izlanishlarining markaziga esa shu insonni qo'ydilar. Natijada ular chin ma'noda xalqchil asarlar yarata oldilar, keng xalq ommasining orzu-istak, his-tuyg'ularini ifodalab, ilg'or gumanistik g'oyalarni ko'tarib chiqdilar. Shu boisdan ham bu davr "gumanizm asri" (humanism lotincha insoniy, insonparvar) deb ham ataldi. Ilk Uyg'onish davri san'atkorlari protorenessans san'ati yutuqlarini davom ettirgan xolda, uni ilmiy jihatdan boyitdilar, realistik san'atning yangi qirralarini ochdilar. Ilk Uyg'onish davrida antik san'atga qiziqish yanada ortdi. Hayotni chuqur o'rganish asosida asar yaratish tamoyillari esa san'atkorlarning fikr doirasini yanada kengaytirdi. Voqelikni ilmiy asosda bilishga intilish paydo bo'ldi. Bu davrda o'lgan binolar, g'oyat katta gumbazli va qator ustunli sobor, saroy va ibodatxonalar qurildi. Ilk Uyg'onish davrida haykaltaroshlik o'zining eng gullagan davrini boshidan kechirdi. Bu davrda qator yetuk haykaltaroshlar ijod etib, realistik haykaltaroshlik sanati taraqqiyotiga muhim xissa qo'shdilar. Bular ichida Lorenzo Giberti, Donatello, Yakono della Kverchi kabi haykaltaroshlar, ayniqsa, mashhurdir. XV asr o'rtalaridan boshlab, kvatrochento san'ati tamoyillari Italiyaning boshqa shaharlarida ham tarqala boshladi. Agar ilk Uyg'onish davrining dastlabki bosqichida Florensiya Italiya badiiy hayotida muhim markaz vazifasini o'tagan bo'lsa, endilikda ahvol butunlay o'zgara boshladi. Italiyaning o'rta va shimoliy qismida o'ziga xos rassomlik maktab va yo'nalishlari yuzaga kela boshladi. Bular ichida Umbriya, Paduya, Venetsiya san'ati ajralib turadi. Turli badiiy maktablarning tashkil topganligi, eng avvalo, mamlakat ichkarisida yagona birlikning yo'qligi, Italiya rayon va shaharlarida turli siyosiy tuzumning mavjudligidan dalolat beradi. Ilk Uyg'onish davrida haykaltaroshlik o'zining eng gullagan davrini boshidan kechirdi. Bu davrda qator yetuk haykaltaroshlar ijod etib, realistik haykaltaroshlik sanati taraqqiyotiga muhim xissa qo'shdilar. Bular ichida Lorenzo Giberti, Donatello, Yakono della Kverchi va shu qatorda Mikelandjelo Buonarroti kabi haykaltaroshlar, ayniqsa, mashhurdir.

Mikelanjelo Buonarroti - italiyalik haykaltarosh, me'mor, rassom. "Bakx", "Dovud", "Pieta" haykallari, Lea va Rohila, Muso haykallari va Sistina cherkovi shiftini bezatgan freskalar muallifi. Italiyaning buyuk rassomi. U chinakam har tomonlama - buyuk haykaltarosh, ajoyib rassom, shoir, me'mor, mutafakkir. Uning ijodida insonning jismoniy va ma'naviy go'zalligi, uning chinakam cheksiz imkoniyatlari madh etilgan. U haykaltaroshlar ichida birinchi bo'lib inson tanasining tuzilishini yaxshi bilgan va uni marmardan o'yib, inson tanasi naqadar go'zal ekanligini barchaga ko'rsatgan. Bu san'atkor qahramonlari insondagi butun ijobiy hislatlarni fazilatiga singdirib yuborgan kishilardir. U san'atning ko'p turlarida, jumladan, haykaltaroshlik, me'morlik, rassomlikda ijod qildi. Lekin u qaysi san'at turida ijod etmasin, shakliy jihatdan tugal, g'oyaviy jihatdan chuqur, badiiy jihatdan go'zal asarlar yarata oldi. Mikelandjelo 70 yillik ijodiy faoliyati davomida san'at maydonida davr ruhi bilan hamnafas asarlar yaratdi. Shu boisdan ham u asarlarida davrning yuksak ideallari bilan bir qatorda, bu ideallarning inqirozga yuz tuta boshlaganini ham juda nozik his etgan holda ko'rsata oldi. Uyg'onish





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

davri tushkunligini birinchi bo'lib, achinish va iztirob bilan etirof etdi. Mikelanjelo 1475 yili 6 martda, Florensiya yaqinidagi Kapreze shaharchasida dunyoga keldi. Uning yoshligi Florensiyada o'tdi. Otasining qarshiligiga qaramay, o'zini san'atga bag'ishlashga qaror qildi. 13 yoshida u florensiyalik Domeniko Girlayadiyo ustaxonasiga o'qishga kirdi. Uning qobiliyati va yuksak iste'dodi Florensiya hokimi Lorensto Medichini o'ziga tortdi. Uni medichilar saroyi qoshidagi badiiy maktabga talabalikka olishdi. Bu erda Mikelanjelo Donatello shogirdlaridan biri qo'lida ikki yil o'z bilim va mahoratini oshirdi. Saroyda yosh rassom antik dunyo san'ati namunalari bilan tanishdi, ulardan ko'chirmalar ishladi. Protorenessans va ilk Uyg'onish davri san'atkorlari bilan, ayniqsa, qahramonlik va tantanavorlik ruhi bilan sug'orilgan Jotto va Mazachcho devoriy suratlari bilan, Yakopo della Kverchi haykallari bilan qiziqdi, ularni o'rgandi. Saroyda bo'lib turadigan mashhur shoir, rassom, haykaltaroshlar, filosof va me'morlar yig'inlaridan voqif bo'lgan yosh san'atkor dunyoqarashi rivojlandi. «Zina oldidagi madonna» (1492), «Kentavrlar janggi» (1494) san'atkorning marmardan ishlangan dastlabki mustaqil asarlaridir. 90-yillarning boshlarida yaratilgan bu bo'rtma tasvir (relyef) o'zining yuksak mahorat bilan ishlanganligi, tasvirlangan obrazning to'laqonligi, san'atkor tanlagan badiiy shakllarning rang-barangligi, ifodaliligi va kompozitsiyasining dinamikasi bilan kishida katta taassurot qoldiradi. Bu asarlarda san'atkor ijodiga antik san'atning ta'siri kuchli bo'lganligi seziladi. Bu ta'sir, ayniqsa, uning Italiya shaharlari (Bolonya, Rim) bo'ylab qilgan sayohati davrida yaratgan «Vakx haykali» (1498) da ham seziladi. Rimda yaratilgan «Pieta» («Isoga aza tutish», 1498-1501) haykali Mikelanjeloga haqiqiy shuhrat keltirdi. Isoga motam tutish mavzusiga bag'ishlangan bu fojiali dramatik kompozitsiyani san'atkor chuqur psixologik rejada hal etib, uni haqiqiy insonning his-



tuyg'u va kechinmalari bilan to'ldirdi. Onaning cheksiz iztirob va qayg'usini uning quyi egilgan boshi, chap qo'lining ixtiyorsiz harakati hamda xomush va mungli termulshi orqali ochishga muyassar bo'lgan. Mikelanjelo Isoning onasini yosh qilib tasvirlaydi. Bu bilan rassom fojiali mavzuni optimistik ruhda tasvirlashga, qiyofaga ruhiy poklik va go'zallik kiritishga, gumanistik ideallarning g'alaba qilishiga ishonch ruhi bilan qarashga harakat qilganligi ko'rinadi. Mikelanjelo 1501 yili Florensiyaga qaytadi. Shu erda shahar hokimiyatining buyurtmasi bilan yaxlit marmardan o'zining mashhur «Dovud» haykali ustida ish boshlaydi va nihoyat, 1504 yili bu haykal Florensiyaning bosh maydoniga o'rnatiladi. Zamondoshlari bu haykalni yuqori baholadilar va uni Florensiya respublikasining himoyachisi, erkinlik va ozodlik ramzi sifatida qabul qildilar. Haqiqatda ham, afsonaviy qahramon buyuk san'atkor uchun davr idealini ifodalashga juda qo'l keldi. Bu obrazga o'z vaqtida Donatello, Verokkio murojaat qilishgan edi. Lekin Mikelanjelo o'z qahramonining g'alabadan keyingi paytini emas, balki jangga tayyor turgan paytdagi holatini tasvirlash orqali uning gumanistik harakterini yanada kuchaytirdi. San'atkor san'at tarixida birinchi bo'lib, butun kuchi bilan dushman hamlasiga qaqshatkich zarba berishga tayyor turgan





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

jasoratli, qudratli inson obrazini yaratish orqali o'z baxt-saodati uchun kurasha oladigan, o'z kuch va imkoniyatlarini to'g'ri baholay oladigan inson qiyofasini yaratishga muvassar bo'ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, XV-XVI asrlarda shakllangan uyg'onish davri butun Yevropa san'atida o'zining yangiligi va san'atning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ilk bor Italiyada aks etgan uyg'onish davri san'ati, keyinchalik Shimoliy yevropa hududlari (Niderlandiya, Germaniya, Fransiya) da o'zining yanada hayotiyiligi va hissiyligi bilan Italiyadan ham o'tib ketdi.. XVI asrdan boshlab Yevropaning boshqa qismlarida ham san'at, adabiyot, ishlab chiqarish rivojlana boshladi. Italiya uyg'onishi hamda fandagi yutuqlar va xususan shu davrda ijod qilgan ijodkorlar keyingi ijodkorlarning ustozlariga aylandilar. Mikelanjelo Buonarroti – nafaqat Renessans davrining, balki insoniyat tarixining buyuk san'atkorlaridan biri bo'lib, uning ijodi butun dunyo madaniy merosining ajralmas qismidir. Mikelanjelo umrining oxirgi yillarida she'riyat va me'morlik bilan shug'ullandi.. Mikelanjelo Buonarroti g'oyalari insonparvarlik, xalqchilik, realizmning keyingi rivojiga xizmat qildi. Mikelanjelo Buonarroti ijodi manyerizm taraqqiyotini ta'minlovchi omil bo'ldi, ulardan farqli o'laroq, Mikelanjelo Buonarroti asarlarida insonga muhabbat va uning ulug'vorligi hamda go'zalligiga ishonchni saqlab qola oldi va ifoda eta oldi. Hozirgi kunda ham ushbu san'at namunalari o'z qiymatini aslo yo'qotgani yo'q. Aksincha, ularning tub ma'nosi hozirgi kunda yangi-yangi fikrlarni yuzaga keltirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mikel-Anjelo Buonarroti yozishmalari va uning shogirdi Askonio Kondivi tomonidan yozilgan usta hayoti. Spb.: Kuşburnu, 1914 yil. 14-sahifa
2. Vasari J. Eng mashhur rassomlar, haykaltaroshlar va me'morlarning tarjimai holi. - Kiev: San'at, 1970 Yil. 310-311-sahifalar
3. <https://www.galleriaaccademiafirenze.it/opere/david>
4. [Condivi, 1999](#), 9-sahifa
5. Fridrix Kriegbaum. Mikelanjelos haykali am Piccolomini-Mehrob im Dom zu Siena // Jahrbuch der Preussischen Kunstsammlungen. — (1942) (63): 57-78. (nemis.)
6. Leyvin I. Bozzetti va modellar. Dastlabki Uyg'onish davridan Berninigacha bo'lgan haykaltaroshlik jarayoni haqida eslatmalar / / G'arbiy Evropa haykaltaroshligi tarixi sahifalari. Ilmiy maqolalar to'plami. Spb.: Davlat Ermitaj nashriyoti, 1993. 66-68 betlar
7. Umumsan'at tarixi (O'rta asrlar san'ati) : o'quv qo'lanma N.D Kultasheva Toshkent : "Noshir", 2019.-184 b.
8. Abdullaev N.U. Tasviriy san'at tarixi . 2010yil.
9. Abdullayev N. San'at tarixi ikki jildlik. Birinchi kitob. - T. San'at 2001y.
10. <https://biographe.ru/znamenitosti/mikelanjelo>
11. https://ru.wikipedia.org/wiki/Заглавная_страница
12. [https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Давид_\(Микеланджело\)](https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Давид_(Микеланджело))
13. <https://www.galleriaaccademiafirenze.it/opere/david>
14. [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Moses_\(Michelangelo\)](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Moses_(Michelangelo))

